



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

YO‘L MUHANDISLIGIDA TERMINOLOGIYANI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Inomjon GANIYEV*

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek tilida yo‘l muhandisligi sohasiga oid terminologiyani tizimlashtirish va lug‘atlar tuzishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan. Unda sohaga xos atamalarining rus va ingliz tillaridan noto‘g‘ri tarjima qilinishi, bir atama uchun bir nechta sinonimik ekvivalentlarning mavjudligi va bu holatning mutaxassislar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishuvga salbiy ta’siri batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xalqaro standartlarga moslashgan yagona terminologik bazani yaratish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi, jumladan, elektron terminologik platforma tuzish, maxsus qo‘mita tashkil etish va ta’lim jarayonida terminologiyani o‘rgatishga doir choralar ko‘rib chiqiladi. Maqola yo‘l muhandisligi sohasida davlat tilini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim masalalarni ko‘tarib, ushbu sohadagi texnik hujjatlar va ilmiy-amaliy faoliyatning sifatini oshirishga qaratilgan takliflarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ish “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy anjumani doirasida tayyorlangan bo‘lib, o‘zbek tilidagi texnik terminologiyani mustahkamlash va uni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha muhim qadam sanaladi.

Kalit so‘zlar: yo‘l muhandisligi, terminologiya, lug‘at, atama, tarjima, tilshunoslik, davlat tili, standartlashtirish, yagona baza, texnik hujjatlar, mutaxassislar, o‘zaro tushunishuv, xalqaro standartlar, elektron platforma, ta’lim jarayoni.

Problems of Improving Terminology in Road Engineering

Abstract

This article is dedicated to the critical issues of systematizing terminology and compiling dictionaries in the field of road engineering in the Uzbek language. It provides a detailed analysis of the challenges associated with the incorrect translation of specialized terms from Russian and English, the existence of multiple synonymous equivalents for a single term.

System: term, and the resulting negative impact on mutual understanding among professionals. Furthermore, the article proposes practical solutions for establishing a unified terminological database aligned with international standards, including the development of an electronic terminological platform, the establishment of a dedicated committee, and the integration of terminology education into the

* Texnika fanlari nomzodi, professor, Jizzax politexnika instituti, shayx.inomjon@gmail.com

learning process. The article addresses key issues aimed at advancing the development of the state language in the road engineering sector, offering recommendations to enhance the quality of technical documentation and scientific-practical activities. This work was prepared within the framework of the V Republican Scientific-Practical Conference on the theme “Development of the State Language: Problems and Solutions,” representing a significant step toward strengthening technical terminology in the Uzbek language and aligning it with international standards.

Keywords: road engineering, terminology, dictionary, term, translation, linguistics, state language, standardization, unified database, technical documentation, professionals, mutual understanding, international standards, electronic platform, educational process.

Kirish

Hozirgi kunda O‘zbekistonda barcha sohalarda, jumladan, yo‘l muhandisligida ham davlat tilida ish yuritish, texnik hujjatlarni tartibga solish va ilmiy faoliyatni milliy tilda amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda (Sharipova, 2024, 12-bet).

Bu jarayon nafaqat til siyosati, balki sohaviy standartlar, texnik xavfsizlik va ish samaradorligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyatga ega (Bobojonova, 2024, 2-bet).

Yo‘l muhandisligi sohasi ko‘p qirrali va texnik jihatdan murakkab bo‘lib, unda asfaltbeton, yo‘l qoplamasi, transport oqimi, drenaj tizimi kabi yuzlab maxsus atamalar qo‘llaniladi. Ularning aksariyati rus va ingliz tillaridan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki qisman o‘zlashtirilgan. Biroq bu atamalar tarjimasida yagona me‘yor yo‘qligi tufayli bir xil atama bir necha variantda ishlatiladi. Masalan, “дорожная разметка” atamasi ayrim hujjatlarda “yo‘l belgilari”, boshqalarida “yo‘l chizig‘i” yoki “yo‘l razmetkasi” deb berilgan. Bunday holatlar turli tashkilotlar, loyihalash institutlari va yo‘l xo‘jaligi korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishuvni qiyinlashtiradi, ish jarayonida chalkashlikka olib keladi. Shu bois, yo‘l muhandisligi sohasida terminologiyani tizimlashtirish, xalqaro standartlarga mos yagona lug‘at va qo‘llanmalar yaratish, elektron platformalar orqali ommalashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada ana shu masalalar ilmiy asosda tahlil etiladi va amaliy yechimlar taklif qilinadi.

Asosiy qism

1. Terminologiyani takomillashtirish zarurligi

Yo‘l muhandisligi – mamlakat infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning samarali faoliyati aniq, izchil va standartlashgan terminologiyaga bevosita bog‘liq. Terminlar faqatgina leksik birlik sifatida emas, balki ishlab chiqarish jarayonlarini, texnik talablarni va me‘yoriy hujjatlarni aniq

ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Terminologiyaning aniq va bir xilda qo'llanilishi quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

Texnik hujjatlar: loyihalash, smeta tuzish va qurilish jarayonlarida tushunmovchiliklarning oldini olish.

Ishlab chiqarish jarayoni: qurilish brigadalari, muhandislar va loyiha tashkilotlari o'rtasida uzluksiz axborot almashinuvini ta'minlash.

Xalqaro hamkorlik: xorijiy investorlar va tashkilotlar bilan umumiy standart va atamalar asosida ish yuritish imkoniyati (Polyakova, 2019, 129-bet).

Agar terminlar aniq va me'yorlashtirilgan bo'lmasa, quyidagi salbiy holatlar kuzatilishi mumkin:

Texnik hujjatlarda turli xil yozilish natijasida mazmunda chalkashlik paydo bo'lishi.

Loyihalash jarayonida xatolar va nomuvofiqliklar yuzaga kelishi.

Ta'lim jarayonida talabalarning turli manbalarda har xil atamalarni o'rganishi sababli bilimdagi izchillik yo'qolishi.

Shuning uchun yo'l muhandisligida terminologiyani takomillashtirish faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki iqtisodiy samaradorlik va xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham dolzarb masaladir.

2. Mavjud muammolar tahlili

2.1. Tarjimadagi noto'g'riliklar

Yo'l muhandisligi sohasiga rus va ingliz tillaridan kirib kelgan ko'plab terminlar o'zbek tilida to'g'ri tarjima qilinmagan yoki turli tashkilot va mualliflar tomonidan bir nechta variantda ishlatilmoqda. Bu esa hujjatlarda izchillikni buzib, mutaxassislar o'rtasida turli talqinlarga sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda noto'g'ri tarjima texnik ma'noni yo'qotadi yoki keng tushunchani ifodalaydigan atamani mahdud ma'noli so'z bilan almashtiradi. Masalan, *asphalt concrete* atamasi "asfaltli beton" deb tarjima qilinganda, u sohaviy jihatdan noto'g'ri talqinga olib kelishi mumkin, chunki yo'l muhandisligida bu materialning nomi yagona va me'yorlashgan – "asfaltbeton" sifatida qabul qilingan.

Quyidagi jadvalda yo'l muhandisligida uchraydigan ayrim atamalar, ularning noto'g'ri yoki turli xil qo'llanilishi va taklif etilayotgan yagona me'yoriy variant keltirilgan:

Ruscha / Inglizcha atama	Noto'g'ri / turli variantlar	Taklif etilgan yagona atama
Асфальтобетон / Asphalt concrete	asfalt-beton, asfaltli beton, yo'l qoplamasi	Asfaltbeton
Дорожная разметка / Road marking	yo'l belgilari, yo'l chizig'i, yo'l razmetkasi	yo'l belgilari

Щебёночное основание / Crushed stone base	maydalangan tosh qoplamasi, tosh yotqizig‘i	maydalangan tosh asos
Обочина / Road shoulder	yo‘l yoqasi, yo‘l chet qismi, yo‘l yoni	yo‘l yoqasi
Водоотвод / Drainage system	suv chiqaruvchi kanal, suv yo‘li, drenaj	suv chiqarish tizimi
Шумоизоляционный экран / Noise barrier	shovqin to‘sari, ovozdan himoya devori	shovqin to‘sari

Bu kabi misollar ko‘rsatadiki, har bir atamani tarjima qilishda sohaviy me‘yor, xalqaro standart va o‘zbek tilining grammatik qoidalari inobatga olinishi zarur.

2.2. Yagona standartning yo‘qligi

Yo‘l muhandisligi sohasidagi asosiy muammolardan biri - atamalarning yagona standart asosida qo‘llanilmasligidir. Turli tashkilotlar, loyihalash institutlari va qurilish korxonalari bir xil atamani turli xil yozadi yoki tarjima qiladi. Bu esa quyidagi salbiy holatlarga olib keladi:

Texnik hujjatlarda izchillikning buzilishi - bir hujjatda “asfaltbeton” deb yozilgan atama boshqa hujjatda “asfaltli beton” sifatida keltirilishi, natijada tahlil va hisobotlarda turli variantlar aralashib ketishi.

Ish jarayonida chalkashliklar – qurilish brigadalari va muhandislar turli atamalarni turlicha tushunishlari sababli ishda xatolar yuzaga kelishi.

Ta’lim va ilmiy tadqiqotda nomuvofiqlik – oliy ta’lim muassasalarida turli o‘quv qo‘llanmalarda bir xil atamaning turli xil talqini talabalarda noaniqlik paydo qiladi.

Masalan, “road shoulder” atamasi ayrim manbalarda “yo‘l yoqasi” deb, boshqa hujjatlarda “yo‘l chet qismi” yoki “yo‘l yoni” sifatida qo‘llanilmoqda. Bu loyihalash jarayonida va obyektga qabul qilish bosqichida tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Yagona standartning yo‘qligi nafaqat tildagi izchillikka, balki texnik xavfsizlikka ham ta’sir qiladi. Chunki yo‘l qurilishida har bir terminning aniq va bir xilda qo‘llanilishi ish sifati, xavfsizlik talablari va loyiha muddatlarini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, yo‘l muhandisligi terminologiyasini yagona standartga keltirish, sohaviy lug‘atlar va davlat standartlarini ishlab chiqish sohaning rivojlanishida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

2.3. Xalqaro standartlarga mos kelmasligi

Hozirgi kunda o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan yo‘l muhandisligi terminlarining sezilarli qismi xalqaro me‘yoriy hujjatlar, xususan, ISO (International Organization for Standardization), AASHTO (American Association of State Highway and

Transportation Officials) yoki MDH davlat standartlari (GOST) bilan to'liq uyg'un emas. Bunday nomuvofiqliklar quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

Atamaning ma'no jihatdan to'g'ri kelmasligi – AASHTO hujjatlarida *flexible pavement* aniq ta'rifga ega bo'lsa-da, ayrim tarjimalarda u “moslashuvchan yo'l qoplamasi” deb emas, balki “yo'l qoplamasi” kabi umumiy so'z bilan ifoda etiladi.

O'lchov birliklari va texnik talablarda farqlar – ISO standartlaridagi ayrim atamalar metrologiyaga oid aniq ko'rsatkichlar bilan belgilangan bo'lsa, mahalliy tarjimalarda bu ko'rsatkichlar yo'qotiladi yoki o'zgartiriladi.

Sohaviy terminlar strukturasi uyg'unlashmaganligi – GOST va ISOda “asosiy yo'l elementlari” qatoridagi atamalar belgilangan tartibda keltirilgan bo'lsa, mahalliy manbalarda ularning tartibi va nomlanishi o'zgarib ketadi.

Xalqaro standartlar bilan to'liq uyg'unlashmagan terminologiya quyidagi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin:

Xorijiy investorlar va loyihalash tashkilotlari bilan hamkorlikda tushunmovchiliklar paydo bo'lishi.

Texnik hujjatlar tarjimasida qo'shimcha vaqt va xarajat talab etilishi.

Eksport yoki import qilinadigan yo'l qurilishi materiallari va uskunalari uchun sertifikatlash jarayonida to'siqlar yuzaga kelishi.

Shuning uchun o'zbek tilidagi yo'l muhandisligi terminologiyasini xalqaro ISO, AASHTO va MDH standartlariga moslashtirish, bu jarayonda sohaviy mutaxassislar va tilshunoslar hamkorligini ta'minlash strategik ahamiyatga ega.

3. Yechimlar va amaliy takliflar

3.1. Maxsus ishchi guruh tashkil etish

Yo'l muhandisligi sohasida terminologiyani takomillashtirish va uni xalqaro me'yorlarga moslashtirish jarayoni tizimli va maqsadli tarzda amalga oshirilishi lozim. Bu maqsadda maxsus ishchi guruh tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ishchi guruhning tarkibi quyidagilardan iborat bo'lishi tavsiya etiladi:

Tilshunoslar – o'zbek tilining grammatik va leksik qoidalariga muvofiq terminlar shakllantirish.

Tarjimonlar – rus va ingliz tillaridan kirgan atamalarni to'g'ri va bir xil tarjima qilish.

Yo'l muhandislari – sohaviy aniqlik va texnik moslikni ta'minlash.

Standartlashtirish mutaxassislari – ISO, AASHTO va GOST talablariga uyg'unlikni tekshirish.

Ishchi guruhning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

Mavjud sohaviy atamalarni to'plash va ularning turli variantlarini tahlil qilish.

Noto'g'ri yoki nomuvofiq tarjimalarni aniqlab, to'g'ri variantlarni taklif etish.

Yagona terminologik baza va sohaviy lug'at ishlab chiqish.

Yangilangan terminologiyani amaliyotga joriy etish va uning qo'llanilishini nazorat qilish.

Bunday ishchi guruhning faoliyati natijasida:

Texnik hujjatlarda izchillik ta'minlanadi.

Loyihalash va qurilish jarayonida tushunmovchiliklar kamayadi.

Xalqaro hamkorlikda til to'siqlari bartaraf etiladi.

Shu tarzda tashkil etilgan komissiya yo'l muhandisligida nafaqat til bir xilligini, balki texnik xavfsizlik va samaradorlikni ham oshirishga xizmat qiladi.

3.2. Yagona lug'at va qo'llanmalar yaratish

Yo'l muhandisligi sohasida til bir xilligini ta'minlashning eng samarali usullaridan biri - yagona lug'at va rasmiy qo'llanmalar ishlab chiqishdir. Bu hujjatlar atamalarning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlab, texnik hujjatlar, loyihalar va ta'lim jarayonida izchillikka erishishga yordam beradi. Tavsiya etiladigan asosiy manbalar quyidagilardan iborat:

“Yo'l muhandisligi terminlarining izohli lug'ati” (o'zbekcha–ruscha–inglizcha);

“Yo'l qurilishi standartlaridagi atamalar” (rasmiy qo'llanma).

3.3. Termin yaratish usullari

Yo'l muhandisligi sohasida terminlar yaratishda izchil va ilmiy yondashuv zarur. Qo'llaniladigan asosiy usullar:

To'g'ridan to'g'ri tarjima: chet tilidagi atamaning ma'nosini saqlagan holda tarjima qilish. Masalan:

speed bump → **tezlik pastgichi**, *road marking* → **yo'l belgilari**.

O'zbeklashtirish (transliteratsiya yoki adaptatsiya): chet tilidagi atamani talaffuz va yozilish jihatdan o'zbek tiliga moslashtirish. Masalan:

tunnel → **tonnel** yoki ma'nosiga ko'ra **yer osti yo'li**.

Yangi so'z yaratish (neologizm): mavjud o'zbekcha so'zlar asosida mutlaqo yangi termin tuzish. Masalan:

traffic flow → **transport oqimi**, *pavement structure* → **qoplama tuzilishi**.

3.4. Elektron platformalar joriy etish

Yo'l muhandisligi terminologiyasini tezkor yangilash va ommalashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhimdir. Buning uchun

termin.uz veb-saytida sohaviy terminlar bazasini yaratish taklif etiladi. Shuningdek, mobil ilovalar ishlab chiqish, ularda oflayn rejimda ishlash imkoniyatini ta'minlash va yangilangan terminlar haqida xabar yuborish taklif etiladi.

Xulosa

Yo'l muhandisligi sohasida terminologiyani yagona standartga keltirish nafaqat davlat tilining nufuzini oshiradi, balki texnik hujjatlar va ish jarayonida izchillikni

mustahkamlaydi. Bu jarayon fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalari mutaxassislarining hamkorligini talab qiladi.

2025-yil: dastlabki izohli lug'at nashr etish.

2026-yilgacha: ISO va AASHTO standartlariga mos atamalarni rasmiy tasdiqlash.

2027-yildan: yo'l-transport ta'lim yo'nalishlarida to'liq o'zbek tilida o'qitish.

Foydalanilgan adabiyotlar

Sharipova S.A. (2024). Neologizmlarga oid maqolalarda terminologiya masalalari va leksik ijodkorlik. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*.

Bobojonova D.O. (2024). Hujjatlarni davlat tilida yozishda terminologiya va uning standartlashuvi. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*.

Polyakova, T. (2019). Terminology Glossaries for Engineering Students of Kirghizstan. In *International Conference on Interactive Collaborative Learning*. Cham: Springer International Publishing.